
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVİY TARBIYALASH IJTIMOİY ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati va uni bo'lajak mutaxassialarda shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati to'g'risida fikr bildirilgan. Ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirishning muhim omillari izohlanib, uning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga ta'siri aniq dalillar bilan izohlangan. Ma'naviyatning ma'rifat, milliy g'urur va o'zlikni anglash kabilar bog'liqligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim, tarbiya, bo'lajak o'qituvchilar, axloq, milliy g'urur, o'zlikni anglash, millat, milliy qadriyatlar, urf-odat.

ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Аннотация. В данной статье высказано мнение о сущности понятия духовности и социальной значимости ее формирования у будущих специалистов. Объяснены важные факторы становления и развития духовности, наглядно объяснено ее влияние на социально-экономическую сферу. В ней говорится о связи духовности с просвещением, национальной гордостью и самосознания.

Ключевые слова. Духовность, просвещение, образование, обучение, будущие учителя, мораль, национальная гордость, идентичность, нация, национальные ценности, традиции.

SPIRITUAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS AS A SOCIAL NEED

Abstract. This article expresses an opinion about the essence of the concept of spirituality and the social importance of its formation in future specialists. Important factors of the formation and development of spirituality are explained, and its impact on the socio-economic sphere is explained with clear evidence. It talks about the connection of spirituality with enlightenment, national pride and self-awareness.

Keywords. Spirituality, enlightenment, education, training, future teachers, morality, national pride, identity, nation, national values, tradition.

Kirish. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishda va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda ma'naviy asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat barkamol insonni tarbiyalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarorining qabul qilinishi yosh avlodni ma'naviyatli, ma'rifatli, axloqiy etuk qilib tarbiyalash vazifasi har qachongidan ham dolzarb bo'ldi. Shu munosabati bilan keyingi yillarda ma'naviyat masalasiga e'tibor kuchaydi. Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga etkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarni milliy istiqlol mafkurasiga sadoqatli bo'lish, ona-Vatanga cheksiz mehr-muhabbatni qaror toptirish O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishdagi eng olijanob ishlarda faol qatnashishga undaydi.

Asosiy qism. Oliy ta'limi davlat ta'lim standartlarida pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talabalarda ilmiy dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, siyosiy faollikni shakllantirish kabi talablarni ta'minlash lozimligi uqtirilgan. Demak, talayularini ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu sohada ma'lum tajribalar to'plangan. Lekin, shu bilan bir qatorda haligacha ba'zi muammolar ham mavjud. Bular:

- talabalarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yagona, izchil tizim to'liq ishlab chiqilmaganligi;
- ushbu muammoning echimi tarbiya nazariyasida pedagogik jihatdan to'raligicha o'z ifodasini topmaganligi;
- talabalarni ma'naviy tarbiyalashga doir metodik ta'minotni takomillashtirishga zarurat sezilayotganligi kabilar.

Shu bois biz tadqiqotimizda talabalarni ma'naviy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik, nazariy va amaliy jihatlarini asoslashga e'tiborni qaratdik.

Ma'naviyat - bu ma'rifiy ildizlarni his etish, milliy g'urur va o'zligini anglashga, ularning jahon madaniyati xazinasiga qo'shadigan hissalarini oshirishga xizmat qiluvchi manba demakdir.

Xalqning, jamiyatning ma'naviy, ilmiy, madaniy merosni egallashining ko'lami, xususiyati va natijalari ko'p jihatdan ma'naviyatga bog'liqdir. Chunki bunda ma'naviyat insoniy qadriyatlarga to'g'ri yo'nalish topib beruvchi «yo'lchi yulduz» bo'lib xizmat qiladi va xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishda jamiyatimiz uchun bugungi kunda va istiqbolida zarur bo'lgan ma'naviy muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar. "Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat"- ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar" [4,144]. Ta'rifga ko'ra ma'naviyat insonning falsafiy-huquqiy, diniy-axloqiy tasavvurlarini aks ettiruvchi manba hisoblanadi, shunga asosan u kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradigan va ularni hamjihatlikka erishishga yordam beradigan, hamkorlikning yangi ufqlarini ochadigan boylikdir.

Ma'naviyatning mohiyatini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov to'liq ta'riflab: «Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir», - deb ta'kidlagan [3, 19].

Ma'naviyat - tariximiz, qadriyatlarimiz asosini tashkil etib, u yoshlarda bu boyliklarga hurmat e'tibor bildirish va ularni yanada rivojlantirish, kelajakda iqtisodiy taraqqiyoti kuchli mamlakatni qurishga undab, yoshlarimizda zamonaviy bilimlarni, yuksak tajribalarni egallashga chorlaydi. Ma'naviyat tushunchasining mohiyati shundan iboratki, u turli xalqlar va mamlakatlar kishilarni qon qardosh qiladi. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. U - inson uchun butun bir olam. Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Ma'naviyatning ma'nosi er, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlikdir. Ma'naviyat juda chuqur va keng ma'noga ega bo'lib, insonni inson qilib, uni boshqa jamiki jonli mavjudotlardan tubdan farqlab, keskin ajratib turadigan ong, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat, saxovat rahm-shavqat, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik tabiatni e'zozlash, ilm-fanni, adabiyot, san'at va madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o'zi va o'zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi madaniyati, urf-odatlarini va an'analarini hurmat qilish va qadrlash singari ajoyib xislat va fazilatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat so'zining o'zagi - ma'nodir. U ma'ni deb ham ishlatiladi. Dunyodan ma'no izlagan kishi ma'naviyat sari talpinadi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Sh.Olimov ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'naviyat – bu insonning bilimliligi, vatanparvarlik tuyg'usiga egaligi, xulq-odob me'yorlari, mehnatsevarlik xislatlari mujassamlashgan hamda ezgulikni namoyon etuvchi botiniy tuyg'ular majmuidir" [5,18].

Ma'naviyat jamiyat va millat ravnaqining boy omilidir va poydevoridir. Demak, ma'naviyat nihoyatda keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat, axloq, san'at, adabiyot kabilarni o'zida mujassam etadi. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalariga kuchli e'tibor berilishining boisi ham ana shunda.

Mamlakatimizda davlat - bosh islohotchi. Ma'lumki, fuqarolari kuchiga tayangan davlatgina jiddiy o'zgarishlarni amalga oshiradi. Shu bois ham milliy siyosatimizda ma'naviyat – barkamol insonlarni shakllantiruvchi muhim omil deb qaralmoqda. Jamiyatda kechayotgan islohotlarda, o'zgarishlarda ma'naviyat muhim o'rin tutadi.

Inson ma'naviyatining mohiyati bir-biri bilan uzviy bog'langan aqliy, axloqiy, ilmiy-amaliy, mafkuraviy fazilatlarning yaxlit tizimi ekanligi ham chuqur tahlil qilib berilgan. Vatanparvarlik,

millatparvarlik, milliy iftixor tuyg'ulari, ona tiliga hurmat, tabiatni muhofaza etish, har qanday sharoitda ona-yurt ma'naviyatini, davlatimiz mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, sharqona urf-odatlarimizga, qonunlarimizga, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash kabi xislatlarning hammasi ma'naviyat bilan bog'liqdir.

Ma'naviyatning inson kamoloti, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotdagi ahamiyati juda katta. Chunki, ma'naviyat tushunchasi shakllangan insonning dunyoqarashi o'zgarib, uning faoliyat mazmuni istiqlol taqdiri, xalqning ma'naviy kamolotini yuksaltirish, milliy ma'naviyatni ravnaq toptirish, xalq ma'rifatini rivojlantirish hamda jahon xalqlari tafakkuri mahsulidan bahramand bo'lish, mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada sog'lomlashtirish kabi vazifalarni o'zining asosiy faoliyat mazmuni deb biladi. Shuni inobatga olsak, ma'naviy-ma'rifiy mazmun faoliyatda amalga oshadi.

Ma'naviyatning mohiyati respublikamizda yashayotgan barcha xalqlarning o'z intilishlari va gullab-yashnashlarida ularni birlashtiruvchi, buyuk umuminsoniy qadriyatlar-millatlararo tinchlik va fuqarolar totuvligi, qonunchilik, ijtimoiy adolat, inson xuquqlarining ustunligiga erishishga xizmat qila oladigan mafkurani shakllantirishda hamkorlik qilish, ilg'or milliy an'analar, urf-odatlar, barcha xalqlarning madaniyatlarini rivojlantirish, ular o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro bir-birlariga ta'sir doirasini kengaytirish va bir-birlarini boyitishlariga imkoniyat yaratib berish; O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqa, hamkorlikdagi harakat, bir-birini boyita borishni mustahkamlash va rivojlantirishdir.

Ma'naviyatni mustahkamlash - bu uning zamonaviy madaniy jihatdan ravnaq topgan davlat, jamiyat sifatida rivojlanishida g'amxo'rlik ko'rsatish demakdir. Bu o'rinda shu jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir inson nazarda tutiladi.

Ma'naviyatni shakllantirish jarayonida o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea va xodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlar tarbiyalanadi.

Ma'naviyatni shakllantirishning maqsadi xalqimiz milliy merosiga vorislik va umumbashariy boyligini ijro eta oladigan, qadrlaydigan madaniyatli, ma'rifatli barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z talabalarida imon, e'tiqod, sadoqat kabi odamiylik fazilatlarini shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalashi lozim.

Xulosa. Bugungi kunda har bir talaba xalqimizning asrlar davomida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyati, nodir qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini ularning mazmunidagi axloq, odob, insof, imon, vijdon, diyonat, adolat, insonparvarlik kabi kurtaklar milliy istiqlol mafkurasi tufayli yanada rivojlanayotganligini, ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishi lozim. Chunki bugungi talaba milliy istiqlol mafkurasi asosida O'zbekistonning axloqli, odobli jahon aholisining hurmatiga sazovor bo'lishi lozim. Shunday ekan, uzoq yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat degan tushunchani na o'quv jarayonida, na ilmiy tadqiqot ishlarida chuqur o'rganilmaganligini nazarda tutib, oliy ta'lim talabasida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni egallash va uni hayotga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ehtiyoji sezilmoqda. Zero, u milliy istiqlol g'oyasi asosida barkamol shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham barkamol avlod shaxsida milliy ong, milliy g'urur, o'z-o'zini anglash tuyg'usi, o'z Vatan va xalqi bilan faxrlanish hislari, milliy qadriyatlar, mas'uliyat, vatanparvarlik va xalqparvarlik-tuyg'usini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga milliy an'analarni, ma'rifat tajribalarini ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish talabalarni, xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa mustaqil O'zbekistonning istiqboli va istiqlolini mustahkamlash va rivojlantirishda, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvligini ta'minlaydi. Insonning ruhiy poklanishi va yuksalishiga da'vat etadi. Inson ichki olamini boyitadi. Ma'naviy tarbiyaning asosiy maqsadi – barkamol avlod shaxsini voyaga etkazish, ularni jamiyatimizning haqiqiy fuqarosiga, ongli fidoyisiga aylantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarori. www.lex.uz.

3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.-173 b.

4. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullaeva, F.Abdullaeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro'ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri / - T.: «Sharq», 2006. - 528 b.

5. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: "Fan va texnologiya", 2015. - 228 b.